



ҚР БФМ ҒЫЛЫМ КОМИТЕТІ МЕМЛЕКЕТ ТАРИХЫ ИНСТИТУТЫ
ЖАС ТАРИХШЫЛАРДЫҢ РЕСПУБЛИКАЛЫҚ ҚАУЫМДАСТЫҒЫ

**«Қазақстан және Түркі әлемі:
қоғамдық ғылымдар саласындағы өзекті мәселелер»
халықаралық онлайн симпозиум материалдарының**

ЖИНАҒЫ

COLLECTION

**of materials of the international online symposium
«Kazakhstan and the Turkic world: actual problems in
the field of social sciences»**

Нұр-Сұлтан, 2021

УДК 327

ББК 66.4

Қ 18

*Қазақстан Республикасы Білім және ғылым министрлігі
Ғылым комитеті Мемлекет тарихы институтының Ғылыми кеңесі ұсынған.*

Бас редактор

Мемлекет тарихы институтының директоры,
тарих ғылымдарының докторы, профессор Е.А. Әбіл

Құрастырушылар:

*Қ.Б. Әддиет, Ж.Н. Жақсыгелдинов, Д.А. Жұмағалиев,
Б.Ш. Ыдырысов, Ә.М. Бәдиеев, А.Сатанов*

Қазақстан және Түркі әлемі: қоғамдық ғылымдар саласындағы өзекті мәселелер. Халықаралық онлайн симпозиум материалдары. 24 сәуір 2021 жыл. – Нұр-Сұлтан, 2021. – 456 бет.

ISBN 978-601-08-0831-7

Жинаққа Түркі әлемінің тіл, әдебиет, тарих, мәдениет, өнер, халықаралық қатынастар және саясат, рухани құндылықтары мен экономикалық мәселелері жаңаша зерделеуге арналған түркі әлемінің жас ғалымдары мен зерттеушілерінің мақалалары енгізілген.

Симпозиум материалдары Түркі әлемінің ортақ әдеби мұрасын насиҳаттау мен катар қазіргі түркі халықтары әдебиеттерінің ортақ тұстары мен ерекшеліктерін анықтау, қазіргі түркі мемлекеттері арасындағы саяси, экономикалық, әлеуметтік-мәдени, білім беру және ғылыми қарым-қатынастарын еларалық байланыстар және көпжакты байланыстардың дамуындағы проблемалар мен олардың шешімдерін, сондай-ақ Қазақстанның халықаралық бастамалары мен аткарған іс-шарапарын көрсетуге арналған.

Жинақ көпжакты қарым-қатынас, түркі мемлекеттерінің ынтымақтастығы мәселелерімен шұғылданатын ғылыми қызметкер-мамандарға, сонымен қатар студент, магистрант, докторант жастағарға, жалпы тақырыпқа қызығатын барша оқырмандарға арналады.

ISBN 978-601-08-0831-7

УДК 327

ББК 66.4

© Мемлекет тарихы институты, 2021

© Жас тарихшылардың республикалық қауымдастыры

Дилноза Жамолова, Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг Туркистондаги сиёсий жараёнларга муносабати.....	180
Feruz Boboyev, Armed movement against The soviet rule in the Turkmen SSR (1925-1926).....	184
Nilufar Jumaeva, Buxoro vohasi dehqonchilik madaniyati tarixidan (XIX asr oxiri-XX asr boshlari).....	195
Ойбек Кличев, “Туркистон тўплами”да Амирзода Сайд Мир Абдулфаттоҳ элчилигининг ёритилиши.....	202
Бахтияр Курбанов, Туркистон-Сибирь темир йўлининг барпо этилиши ва унинг аҳамияти.....	206
Манзила Курбонова, Туркий халқларда сутли таомлар (этнографик таҳлил).....	211
Бахтиёр Мирзаджанов, Проблема национальных кадров и их равного представления в государственных органах и учреждениях Туркестана.....	219
Бахтиёр Мирзаджанов, Вопросы равного представления в государственных органах и учреждениях Туркестана.....	225
Mirzadjanov B.T., Aizbek Boymirzayev, Muqaddas Azizova, Women's issue in Turkestan (1917-1924).....	232
Сардорбек Мирзахалов, Ёшлар тадбиркорлигини давлат томонидан қўллаб-қувватланишининг меъёрий-хуқуқий асослари.....	235
Мухаммадали Мубинов, Sharq mamlakatlari bilan savdo-sotiqda O`rta Osiyo xonliklaridagi shaharlarning ishtiropi, savdo-sotiqda amal qilgan qoidalar va narx navo.....	243
Dilrabo Murodova, Buxoro viloyati davlat arxivi fondlarida lotinlashtirish masalalari.....	250
Müşviq Mustafayev, Südabə Hüseynova, Günel Aslanova, Sosial adaptasiya sosiallaşmanın xüsusi formasi kimi.....	256
Бунёд Насиров, Парикмахерское и банное дела в Узбекистане (в период Советской власти).....	261
Бунёд Насиров, Совет хукумати даврида Ўзбекистонда ижтимоий-маиший инфраструктуралар фаолияти.....	266
Alisher Nigmatov, XX asr 20-90-yillarda O'zbekistonda etnik tarkib va aholi sonining kengayishi.....	271

12. Тижорат банкларининг кичик тадбиркорликни ривожлантиришда қатнашишини рағбатлантиришга доир кўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги Вазирлар Махкамаси қарори. \lex.uz мурожаат қилинган сана: 11.3.2021 й.;

13. “Yoshlar kelajagimiz” давлат дастури тзрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. \ Lex.uz қидирув тизими

14. Ўзбекистон Республикаси Президенти ПҚ-2124 Қарори \ электрон ресурс: nrm.uz ;

15. Ёшларга оид давлат сиёсатининг мустаҳкам хукукий асоси \ Жамият - 40 сон, 2016 йил 7 октябрь;

16. “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни \ lex.uz қидирув тизими;

17. “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни \ lex.uz қидирув тизими;

18. Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепсиясини тасдиқлаш тўғриси Вазирлар Махкамасининг 23-сонли қарори \ Lex.uz қидирув тизими. Муражгаат қилинган сана: 11.03.2021 йил;

19. Ўзбекистон Ёшлар Иттифоқи хузуридаги «yoshlar — kelajagimiz» жамғармаси фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида Вазирлар Махкамаси 669-сонли Қарори Lex.uz қидирув тизими. Муражгаат қилинган сана: 17.03.2021 йил;

20. Гофуров Н.К., Рахманов З.Я. ва бошқалар Ёш тадбиркорларга ўз бизнесларини йўлга қўйишлари бўйича назарий ва амалий кўрсатмалар \ Услубий кўлланма. Тошкент-2019 йил. Б. 26-27;

21. Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепсиясини тасдиқлаш тўғриси Вазирлар Махкамасининг 23-сонли қарори \ Lex.uz қидирув тизими. Муражгаат қилинган сана: 11.03.2021 йил;

22. Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепсиясини тасдиқлаш тўғриси Вазирлар Махкамасининг 23-сонли қарори \ Lex.uz қидирув тизими. Муражгаат қилинган сана: 11.03.2021 йил;

23. Давлат солик кўмитасининг 2021 йил 16 матрдаги 19\6-00906-сон хати

**SHARQ MAMLAKATLARI BILAN SAVDO-SOTIQDA
O'RTA OSIYO XONLIKLARIDAGI SHAHARLARNING ISHTIROKI,
SAVDO-SOTIQDA AMAL QILGAN QOIDALAR VA NARX NAVO**

Мубинов Мухаммадали Акобирович,

*Бухарский государственный университет
Преподаватель (Республика Узбекистан)*

**PARTICIPATION OF THE CITIES OF THE CENTRAL ASIAN KHANATES
WITH THE COUNTRIES OF THE EAST IN TRADE**

Annotation: This article considers information about the participation of the cities of Central Asian khanates in trade with the countries of the East and analyzes data on the rules and prices in the markets of Central Asian cities based on historical sources.

Key words: trade route, trade, market, caravanserai, trade shops, ducat, slave issue, diplomatic relations.

O'rganilayotgan XVI-XIX asrlar davomida Sharq mamlakatlari bilan aloqalarda xonliklardagi o'nlab shaharlarning roli oshib borgan. XVI asrning oxiri – XVII asr boshlarida qadimdan savdo-sotiqlar bilan aloqalarida faol ishtirok qilib kelgan O'rta Osiyo shaharlaring xorijiy mamlakatlar bilan tashqi savdosi rivojlangan. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro kabi shaharlar dunyoning o'nlab mamlakatlariga o'z mahsulotlarini chiqargan. Professor R.G. Mukminovaning ma'lumoticha, XVI-XVII asrlarda Samarqand qog'oz'i mashhur bo'lib, u o'zining mustahkamligi, pishiqligi, o'ta sifatliligi hamda yozish uchun qulay bo'lganligi bilan ajralib turgan. Samarqandda ishlab chiqarilgan qizil va qirmizi baxmal, quritilgan mevalar, olma, o'rik singarilar Sharq va G'arb mamlakatlarida yuksak qadrlangan. Buxoro esa, Sharqqa olacha, gazlama, turkman otlari, qoramol, qo'y, vino kabilar chiqargan. Buxoro vinosi Ovro'pa vinosidan bir necha karra mustahkam bo'lganligi o'rta asr manbalarida qayta-qayta tilga olinadi. Buryatlarning xalq og'zaki ijodidan Buxoroning oltin suvi yuritilgan nayzalari haqida kuylangan. Subhonqulixonda (1680-1702 yillarda Buxoro xoni bo'lgan) shamoldan ham tez uchadigan «Iroqi ot» bo'lganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Buxoro bozorlarida Sharq savdogarlar bilan birga Astraxan va Qozon (Rossiya imperiyasi)dan kelgan tatar savdogarlar ham ko'pchilik bo'lib, ularni «Buxara yurtuchi» deb atashgan. Xitoy va Hindistonda Buxoro savdogarlarining karvonsaroylari bo'lgan. Buxorolik savdogarlar Hindistonda har yili o'tkazib turilgan savdogarlarning qurultoylarida «Faxriy buxoroliklar» deb ulug'langan.

XVII-XVIII asrlarda Xiva va Buxoro bozorlarini zabit etish uchun ingлиз savdo aym'oqchilari an'anaviy savdo-sotiqlar bilan foydalanib, xonliklarning poytaxtlariga yetib kelishga harakat qilishgan. 1739-yilda ingлиз aym'oqchilaridan Jon Elton va Mungo Gren («Moskva savdo kompaniyasi» a'zolari) Sankt-Peterburg – Moskva – Volga – Kaspiy yo'nalishi bo'ylab Astraxanga keladi. Ular O'rta Osiyoga o'tib Angliya mahsulotlari uchun bozor qidirmoqchi edilar. Lekin Eron shohi Nodirshoh Afshor Xiva xonligini bosib olganligidan xabardor bo'lishib, orqaga qaytadilar. 1740-yilda «Moskva savdo kompaniyasi» savdogarlaridan Georgiy Tompson hamda Rognald Xogt Xiva xonligining yerlarigacha yetib kelishdi. 1740-yil 15-dekabrda Xiva xonligi Nodirshoh tomonidan bosib olinadi. Ular o'zlarini bilan olib kelgan ingлиз tovarlarini Eron vakillariga beradilar. Eronliklar ularga tovarlari uchun pul to'lamadi. Xogt Xivada qoladi, Tompson esa Buxoroga qarab yo'lga chiqadi. U Buxoro bozorlarida bo'lib, shahardagi savdo-sotiqlar bilan tanishadi. Mashaqqatlar bilan 1747-yilda Sankt-Peterburgga qaytib kelgan Xogt va Tompsonlar o'zlarining Xiva va Buxoro shaharlari savdosi haqidagi xotiralarini yozib qoldirishgan. Ularning ma'lumotlarida, Buxoro va Xivada tashqi savdodan olinadigan boj 2.5 va 5 % ni tashkil etadi (Musulmonlardan 2.5, nasroniylardan esa 5 % boj olingan). Tompsonning qayd qilishicha, Buxoro xonligidagi tashqi savdodan olinadigan bir yillik daromad 1000 dukat (Yevropa puli), Xiva xonligida esa, 100 dukatni tashkil qilgan. Demak, Buxoro xonligida Xiva xonligiga nisbatan 10 baravar ko'p miqdorda tashqi savdodan daromad olingan.

Bu davrda O'rta Osiyo shaharlari Eronning Tabriz, Mashhad, Tehron shaharlari bilan hamda Ozarbayjonning Ganja, Shemaxa, Baku, Ardabel kabi shaharlari bilan qizg'in savdo-sotiqlar bilan aloqalarini olib borishgan. Tabriz orqali Shimoliy Erondan o'tgan karvon yo'llari

hamda Buxoro, Xiva, Urganch, Kaspiy dengizi, Astraxan undan Bakuga o`tadigan savdo yo`li bo`ylab o`nlab karvonsaroylar qad ko`targan. Xonliklarning Eron va Ozarbayjon savdo-sotiq munosabatlari shu qadar rivojlanganki, bu ozarbayjonlarning kundalik maishiy turmush tarziga ham kirib ketgan. Hozirga qadar Ozarbayjon Respublikasining bir qator shaharlarida qorako`l teridan tikiladigan telpakni «Buxara papax» deb atashsa, uylarni qizitish uchun foydalanadigan pechni «Buxara pech» deyishadi. Ozarbayjonning poytaxti Baku shahrida «buxoroliklar karvonsaroyi» hanuzgacha saqlangan. Buxoro shahrida Eron, Ozarbayjon savdogarlari doimiy istiqomat qilib, savdo-sotiq ishlari bilan shug`ullanganligi ham muhimdir. Jumladan, XVIII asrda ozarbayjonlik savdogar Zamon Allohyorov istiqomat qilib choy savdosi bilan shug`ullangan. Manbalardan birida tabrizlik savdogar Sulaymon Allocho`liyev ikki o`g`li bilan Buxoroda yashab, o`zining shaxsiy savdo do`konlariga ega bo`lganligi qayd qilingan.

XVII asr oxirida esa, shemaxalik savdogarlardan Mirza Ismatulloh va Murodxon Shohkarimovlar Buxorodagi eng katta savdogarlardan bo`lganligi yozib qoldirilgan.

Ta`kidlash joizki, savdo-sotiq munosabatlari silliq kechmagan. 1828-yilda Qo`qon xonligi bilan Xitoy hukumati o`rtasidagi munosabatlarning yomonlashuvi tufayli o`zaro savdo aloqalari 1832-yilgacha uzilib qolgan edi. 1828-1832-yillarda Sharqiylar Turkistondan farg`onalik savdogarlar chiqarib yuborilgan. Qo`qon xoni Muhammad Alixon (Madalixon 1822-1841) yangidan Xitoy vakillari bilan shartnomalar imzolab, o`zaro savdo munosabatlarini tiklashga muvaffaq bo`ladi.

XVII asr oxiri - XIX asrning birinchi choragida O`rta Osiyo xonliklari shaharlarining xorij bilan savdo-sotiq aloqalari rivojiga xonliklar o`rtasidagi o`zaro nizo va janjallar, tez-tez takrorlanib turgan urushlar ham salbiy ta`sir ko`rsatgan. Shunga qaramay, o`nlab O`rta Osiyoning qadimda va o`rta asrlarda mashhur bo`lgan shaharlari an'anaviy savdo-sotiq munosabatlaridagi o`z mavqelarini XVI-XIX asrlarda ma'lum darajada saqlab qolishga erishgan desak xato qilmaymiz. Bu jihatni bиргина Buxoro shahri misolida ko`rish mumkin.

Shu o`rinda Sharq mamlakatlari bilan diplomatik aloqalarda «asir qullar masalasi» ham muhim bo`lganligi manbalarda qayd etilganligini bildirish zarur. Tarixdan ma'lumki, Sharq dunyosida uzoq vaqt qulchilik munosabatlari va qullar mehnatidan uy xo`jaligida foydalanish saqlanib qolgan. Qul va qulchilik jamiyat taraqqiyotiga keyingi davrlarda katta to`sinq bo`lsa-da, XVII-XIX asrlarda ham bu munosabatlar turli omillar tufayli yashovchan bo`lib qolgandi. Qadimgi va o`rta asrlarda qullarga nisbatan «gapiruvchi hayvonlar» sifatida munosabatda bo`linib, otaning qarzdorligi evaziga o`z o`g`li va xotinini qul qilib berish yoxud bozorga chiqarib sotish kabilar ilgari barham topgan bo`lsa-da, Buxoro, Xiva, Qo`qon xonliklari qul bozorlari mavjud bo`lganligi qullarga nisbatan shavqatsiz munosabatda bo`lganliklari bilan bog`liq ma'lumotlar manbalarda uchraydi. Qulga aylanishning qarzdorlik, urush, asrga olish, ovlash kabi omillari mavjud bo`lgan.

Professor H.Z. Ziyayev O`rta Osiyo va Sibir, Volga va Ural bo`yidagi o`zbeklar (turkistonliklar) haqida yozar ekan, yuzlab «buxoroliklar»ning arxivlarda saqlangan arizalarini keltiradi. Ularda O`rta Osiyoliklarning Sibir va turli mamlakatlarda yashab

qolishlaridagi omillardan biri, ularni turkman, qalmiqlar qo'liga asir tushib qolishlari tufayli qul qilib sotilganligi qayd etiladi¹.

XVIII-XIX asrlar davri tarixiga oid adabiyotlari bilan tanishar ekanmiz, Buxoro xonligi bilan Rossiya, Eron, Afg'oniston, Hindiston diplomatik aloqalarida asir qullar masalasi ham elchilar oldida turgan muhim, hal etilishi kerak bo'lgan vazifalardan biri ekanligiga amin bo`lamiz.

1717-1718-yillarda Buxoro xoni Abulfayzxonning (1711-1747) Rossiyaga yuborgan elchisi Qulibek (Xonquli) to`pchiboshi oldida ikki mamlakat o`rtasida bojsiz savdo-sotiqning yo`lga qo'yilishi, o`zaro diplomatik munosabatlarni o`rnatish kabi vazifalar qatorida Rossiyyadagi Buxoro vakillari bo`lgan, qullik asoratiga tushganlarni ham ozod qilish missiyasi turardi. U o`zi bilan 36 ta xonlikdagi rus asir qullarni Rossiya imperiyasi poytaxti Sankt-Peterburgga olib borgan edi. Aslida, Qulibek to`pchiboshi ham rus armiyasining kabrali, asl ismi-sharifi Andrey Rodikov bo`lib, Subhonqulixon (1680-1702) zamonida asirga tushib, xonga qul qilib sotilgan edi. U qullikdan bek, topchiboshi mansabiga ko`tarildi.

U Ubaydullaxon II (1702-1711) va Abulfayzxon (1711-1747) davrlarida sadoqat bilan xizmat qilib beklik darajasigacha ko`tarilgan edi.

Pyotr I (1672-1682-1725)dan rus armiyasi polkovnigi unvonini olgan Buxoro elchisi Rossiya tutqunlikda saqlanayotgan qullarni ikkita davlat jinoyatchisidan boshqa barchani ozod qilinishiga erishadi².

Yoxud Xiva va Buxoro xonlari bilan XVIII-XIX asrlarda Eron davlati aloqalariga qulchilik, qullarni ozod qilish, muhim vazifa ekanligini ko`rish mumkin. Bu masalada xonlar o`rtasida ko`plab siyosiy munozaralar bo`lgan. Masalan, XIX asrning 50-yillarda Eron shohi Nosiriddinshohning Muhammad Aminxonga yuborgan elchisi Muhammad Alixon «Safarnomayi Xorazm» («Xorazmga elchilik») kitobida keltirilishicha, «Eronning 50 mingdan ortiq askar va fuqarolari Xivada asir va qul bo`lganlar».

Bir-biriga qavm-qarindosh amakivachcha va aka-ukalar bo`lganlar Xorazmda uzoq yillar davomida tutqunlikda yashagan va bundan xabar topmagan eronlik qullar borligi ham ma'lum bo`ladi³, deb yozgandi Xiva xoni bilan muloqotda bo`lgan Eron elchisi. Turkmanlar ularni ovlab xonlik bozorlarida sotganliklari, xon qullarining egasi bo`lgan turkmanlarga monelik qilmasligi, eronlik asir qullarning o`z mehnati bilan xonlikda yuqori martabaga ko`tarilganligi ham ayon bo`ladi. Xiva xonligida davlat arkonida xizmat qilayotgan qullarning ortiga qaytishiga monelik qilishmagan. Eron manbalarida sog`lom erkak qul – 100 oltin tanga, ayol yoxud go`zal qiz 300-350 oltin tangaga sotilgan. Diplomatlar bu masalada xonlar bilan muzokaraga kirishib turishgan.

Shuningdek, Buxoro amiri Nasrulloxon (1826-1860) o`z hukmronligining dastlabki yilida Qobulbek qirqni Eron podshohi Muhammadshohga, Boltaqulbek Chig`atoyni Turkiya sultoni Abulmajid Xalifaga elchi qilib yuboradi. Qobulbek qirq va Muhammadshoh

¹ Ziyayev H.Z. Sibirdagi o`zbeklar. –T.: Fan. 1963. –B.16.

² Qarang. Buxoro tarixi masalalari (Eng qadimgi zamonlardan hozirgacha). Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –Buxoro -2017. –B.168.

³ Xorazm safari kundaliklari (Nosiriddinshoh va Muhammad Aminxon o`rtasidagi diplomatik aloqalar tarixidan). –T.: “Yangi asr avlodii”. -2009. –B.56.

muzokalarini keskin munozara bilan o'tib, Eron shohi Buxoro elchisiga fors qullarining ahvoli og'irligi, Buxoro amirligida eronliklar qattiq azoblanayotganligini ta'kidlaydi. Biroq, Boltaqulbek Chig'atozbek Turkiyadan qayta turib, Eron shohi huzuriga katta sovg'a-salomlar bilan tashrif buyuradi. U Eron shohining e'tiroziga nisbatan Buxoro amiri gunohsizligi, bu ko'chmanchi qul ovlovchi turkmanlarning ishi ekanligi, aksincha, amir Eron fuqarolariga dindoshlik, qo'shnichilik munosabatlarida bo'layotganligi, Eron asirlarining ko'philigi ozod qilinib, uy-joy qurib, boyib ketganliklari, podshoh huzurida yuksak mansablarda ishlayotganliklarini uqtira olgan⁴.

Xullas, jahon tarixining yangi davrida ham Sharq mamlakatlarida qulchilik, shu asoratdan ozod qilish, ularni o'z mamlakatiga qaytarish diplomatik aloqlar tuzilishida muhim bo'g'indan biri hisoblanardi. Ushbu masalada mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar goh keskinlashib, goh yumshab turardi. Ushbu masalani yarashib hal etish ko'p jihatdan elchilarining diplomatik mahoratiga bog'liq bo'lganligiga tarixning o'zi guvohlik beradi.

Buxoro amirligida, umuman, O'rta Osiyoning arava yuradigan yo'llarida ikki g'ildirakli aravadan keng foydalanilgan. Aravaning g'ildiraklari juda baland bo'lib, diametri 1 sajenga teng edi. Aravalar uchun yasalgan g'ildirakning asosiy qismi yog'ochdan tayyorlanar, uni faqat tashqi tomondan, ya'ni sirtqi qismi yupqa temir bilan qoplangan edi. Bunday nusxdagi aravaga to'g'ri yo'llarda 30 pudgacha (480 kg) yuk ortish mumkin bo'lган.

To'rt g'ildirakli aravalar mahalliy aholi tomonidan ishlatilmagan. Faqatgina XX asrning boshlariga kelib, ikki g'ildiragi temirdan, ikki g'ildiragi yog'ochdan yasalgan aravalar paydo bo'lgan va ulardan Buxoro amirligi hududidagi Termiz, Chorjo'y kabi savdo markazlariga yuk olib borishda foydalanilgan.

O'rta Osiyo xonliklari orasidagi o'zaro savdo yo'llarida yuk tashishda asosiy transport vositasi rolini aravalar emas, balki tuyalar, otlar bajargan. Ba'zi joylarda xachir va eshaklardan ham foydalanilgan. Tuyaning ustiga maxsus yuk ortiladigan moslama bog'lanib, yog'ochdan yasalgan moslamaga 16 pudgacha bo'lgan (256 kg) yuk ortilgan.

Tuya bo'lмаган joylarda (taqirlik, past-tekislik, tog'lik joylarda) esa yuklarni tashishda otlardan foydalanilgan. Odatda bir otga qamishdan kajava bog'lanib, unga 8 pud (128 kg) yuk ortilgan.

Otga 10 pud og'irlikdagi (160 kg) yuk ortilganligi ham adabiyotlarda qayd etilgan. Yuk ortiladigan tuyalar bir va ikki o'rkachli bo'lib, ikki o'rkachli tuyalar tabiatan O'rta Osiyoda ko'p uchraydi. Ikki o'rkachli tuyalarga Xivada, Buxoroda (Xivaga va Rossiya ga yuk jo'natilganda) istisno tariqasida 18, 19 va 20 pud yuk ortilan. Bir o'rkachli tuyalar tabiatan kamroq bo'lGANI sababli ulardan ko'p foydalanilmagan. Bunday tuyalarga odatda 20-24 pud yuk ortilgan.

O'rta Osiyodan Eron, Hindistonga yuk olib borishda xachirlardan ham foydalanib, ularga 20 pudgacha bo'lgan yuklar ortilgan. Ular tuyagaaraganda ancha tezroq harakat qilib, tuyalar 15 kunda bosib o'tadigan masofani xachirlar 12-13 kunda bosib o'tgan.

⁴ Xorazm safari kundaligi. -B.208.

Otlar garchand tuyalarga qaraganda ikki baravar yukni tashiy olsalarda, ularning tezligi tuyalarga qaraganda ikki, hattoki uch marta yuqoriroq bo`lgani uchun yukni tashish xarajatiga bir xil narx belgilangan.

O`rta Osiyo savdo karvonlarida eshakdan ham foydalanilgan. Xiva, Buxoro va Toshkentdan qatnaydigan karvonlar tarkibida kam bo`lsada eshaklar bo`lgan. Jussasi kichkina bo`lishiga qaramay eshaklar yuk ko`tarishda qariyb otlarga tenglashgan. Ular ham otlarga ortilgan yuklarni bemalol tashiy olgan va karvon yo`lining barcha qiyinchiliklariga (suvsizlik, qattiq, dag`al xashakni iste`mol qilish) tuyadek chidamli bo`lgan. Odatda eshakka 4-5 pud yuk ortilgan. Agar karvon yo`li juda uzoq bo`lmasa, yaqin masofalarda eshaklarga 8, ba`zan 10 pudga yaqin yuk ortilgan.

O`rta Osiyo xonliklarining o`zaro savdosida ko`mir va tuz savdo qilish o`ziga xos rivojlangan. Xiva xonligi va Buxoro amirligida saksovuldan toshko`mir tayyorlangan. Amudaryo bo`ylab Uch-o`choq, Qizilrabot, Sartarosh degan joylarda saksovulni olovda kuydirib toshko`mir hosil qilingan. Xiva xoni har yili 4 marta toshko`mir tashib keltirish uchun Amudaryo qirg`oqlariga o`ntagacha qayiq-kemalar jo`natib turgan. Bu paytda Sharqiy Buxoroda ham toshko`mir tayyorlanib, mamlakat ichki bozorlarida sotilgan. Amudaryo bo`ylab, Petro-Aleksandrosidan 30 verst masofada, daryoning chap qirg`og`ida tuz yuklaydigan pristan bo`lib, undan yiliga o`rtacha 500 qayiq tuz yukanib, Qo`ng`irot va boshqa joylarga sotilgan.

O`rta Osiyo xonliklari o`rtasidagi o`zaro savdo yo`llari xonliklarning bir-biri bilan amalgalashuviga aloqalarida va mahsulot ayriboshlashda shubhasiz ijobjiy ahamiyatga ega bo`lgan.

Sharq mamlakatlari bilan savdo-sotiqlari rivoji Buxoro amirligi va O`rta Osiyoning boshqa xonliklarida ichki bozorlar, savdo rastalarining kengayib borishiga ta`sir ko`rsatgan. Buxoro xonligi davrida savdo rastalari Nodir Devonbegi madrasasining orqa tomonidan boshlanib, u yerda rastai halvogari, rastai baqqoli, rastai rohati-jon furushi (muzqaymoq sotish rastasi) joylashgan bo`lsa, Ko`kaldosh madrasasi yo`nalishida bozori jav (tariq) bozori faoliyat ko`rsatgan. Hozirgi Ko`kaldosh madrasasi oldida bozori namak (tuz bozori) joylashgan. Uning qarama-qarshi tomonida bozori no`xat (mosh, no`xat, loviya) sotilgan. Nodir Devonbegi hovuzi atrofida nonfurushlar va holvagarlar rastalari bo`lgan. Labihovuzdan Samarqand darvozasi yo`nalishida attorlar rastasi, so`ngra ko`mir sotiladigan bozor, tano`r (tadirsozlik bozori) davom etgan. Ko`kaldosh madrasasi orqasida rastai qassob ya`ni go`sht do`konlari joylashgan. Labihovuzdan Toqi Sarrofon gacha o`t sotiladigan bozori alaf, choy rastasi, tovuq sotiladigan bozori murg`, bozori latta, bozori sham joylashgan. Bu rastalarda Eron, Turkiya, Afg`oniston va Hindiston savdogarlarining do`konlari bo`lgan.

Toqi Sarrafon ikki ko`cha chorrahasida bo`lib, bulardan biri Registon tomoniga qarab ketgan. Bu toqning gumbazi bir-birini kesib o`tadigan 4 ta mustahkam peshtoq ustiga qurilgan. Peshtoqlar tagidan «Chorzmich» deb atalgan Buxoro me`morchilingga xos gumbaz bilan qoplangan yo`l o`tadi. Bu toqning Sarrofon deb atalishiga sabab, unda sarroflar o`tiri xorijiy pullarni almashtirganlar va pul maydalaganlar. Gavkushon madrasasi yo`nalishida Shohrud arig`ining ikki tomonida cho`bfuro`shlar rastasi joylashgan.

Mag'oki Attori masjidi yo`nalishida attorchilik rastasi bo`lib, unda shom, attor va boshqa dorivorlar sotilgan. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Mag'oki Attori masjidining oqa tomonida Timi Safed joylashgan bo`lib, unda rastai oynafuro`shi, rastai shonafuro`shi joylashgan. Shuningdek, Toqi Telpakfurushon yo`nalishida rastai sallafuro`shi, rastai adreslar o`rin olgan. Ko`kaldosh madrasasining Toqi Telpakfuro`shon yo`nalishida poyafzal rastasi, mix va taqa (namgari) singari rastalar bo`lgan. Ayniqsa, Abdullaxon II (1557, 1583-1598) toqilar qurilishi avj olgan. Timi Abdullaxon 1577-yilda qurilgan. Markaziy Osiyoda yagona yopiq bozor hisoblanib, ichkari qismi juda salqin bo`lgan. Bu savdo markazida ipak, kundal, kimxob, farangi singari matolar sotilgan. Timning orqa tomonida miltiq sotiladigan bozor bo`lgan. Abdullaxon timida 6 ta darvoza bo`lib, odatda ko`p mahsulotlar chakana savdosi shu yerda o`tkazilgan. Qorong` u tushishi bilan bozor yopilib, hech kimning kirishiga yo`l qo`yilmagan. Xorijiy savdogarlarning savdosotiqlari olib borishi uchun shart-sharoitlar yaratilgan. Karvonsaroy ularga xizmat qilgan. Har bir xorijlik savdogarlar uchun alohida karvonsaroy qurilgan.

Toqi Zargaron muntazam sakkiz burchakli, uning ikki xonasи bahaybat gumbaz bilan yopilgan. 16 ta darchali gumbazning meridional qobirg`alari bor. U yerda 36 ta zargarlik do`konи bo`lib, ayollar uchun tayyorlangan va butun dunyoga mashhur zargarlik buyumlari shu yerda tayyorlanib sotilgan. Toqi Zargarondan Minorai Kalon yo`nalishida ikki tomondan guruch (birinch) bozori joylashgan, undan keyin go`sht sotuvchilar (rastai qassobi) joylashgan.

Registon maydoni chorrahasida Toqi Pirgaron (hozir u yiqitilib yo`l o`tkazilgan) joylashgan bo`lib, unda o`q-yoy tayyorlangan 30 dan ortiq ustaxonlar joylashgan.

Registon va Boloi Hovuz atrofida ham katta-katta savdorastalari joylashgan. U yerda choy, qovurilgan no`xat (biryon), qog`oz va siyoh, beshik (rastai gavorafuro`sh), qo`y (bozori go`sford), o`t (alaf), kadi, tarvuz va qovun rastalari joylashgan.

XVI-XIX asrlarda Buyuk Ipak yo`lining chorrahasida joylashgan Buxoroga tashrif buyurganxorijlik savdogarlar o`ziga zarur mahsulotni topish va sotib olish, shuningdek, o`z tovarlarini sotish uchun qiyalmagan. Negaki, amirlik huddida joylashgan bozor va rastalarning o`rni va mahsulotlar turlari ularga oldindan tanish bo`lgan. Shuning uchun ham Sharq bozorlariga xos gavjumlik, qizg`in savdo-sotiqlari Buxoro shahridagi timlar, toqlar hamda savdo rastalarida yanada avj olgan. Shu boisdan ham xorijiy savdogarlar Buxoro bozorlarida qizg`in savdo-sotiqlari olib borish uchun serqatnov bo`lishgan⁵.

1. Ziyayev H.Z. Sibirdagi o`zbeklar. –T.: Fan. 1963. –B.16.
2. Qarang. Buxoro tarixi masalalari (Eng qadimgi zamonalardan hozirgacha). Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –Buxoro -2017. –B.168.
3. Xorazm safari kundaliklari (Nosiriddinshoh va Muhammad Aminxon o`rtasidagi diplomatik aloqlar tarixidan). –T.: «Yangi asr avlodи». -2009. –B.56.
4. Xorazm safari kundaligi. –B.208.
5. Qarang. Buxoro tarixi masalalari (Eng qadimgi zamonalardan hozirgacha). Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –Buxoro -2017. –B.166-167.

⁵ Qarang. Buxoro tarixi masalalari (Eng qadimgi zamonalardan hozirgacha). Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –Buxoro -2017. –B.166-167.

РЕЗОЛЮЦИЯ

международного симпозиума «Казахстан и Тюркский мир: актуальные проблемы в области социальных наук»

24 апреля 2021 года в столице Республики Казахстан в городе Нур-Султан прошел международный симпозиум «Казахстан и Тюркский мир: актуальные проблемы в области социальных наук» организованный Институтом истории государства Комитета науки Министерства образования и науки Республики Казахстан совместно с Республиканской ассоциацией молодых историков для совместного решения вопросов, которые необходимо изучить в области социальных наук, таких как язык, литература, история, искусство, культура, международные отношения и политика, духовные ценности и региональные проблемы тюркского мира.

В симпозиуме приняли участие молодые ученые и исследователи из Казахстана, Турции, Азербайджана, Узбекистана, Кыргызстана, Татарстана, Башкортостана, Дагестана, Каракалпакстана, Саха-Якутии, Хакасии, Алтайского края.

В рамках международной научной конференции прошли заседания Сыганак по истории, археологии, этнологии, культуре, заседания Сарайшык по образованию, просвещению, языку, литературе, искусству, заседания Туркестан международным отношениям, региональным вопросам, заседания Орынбор по политологии, экономике, туризму, спорту, области медиа науки, заседания Алматы в области философии, религии, социологии, права.

Отечественные и зарубежные ученые обменялись мнениями по актуальным вопросам тюркского мира в области языка, литературы, истории, образования, культуры, искусства, коммуникации, международных отношений, региональных проблем, религии, философии, социологии, туризма, экономики и социальных наук. Обсуждение вопросов, связанных с реализацией совместных проектов в тюркском мире, сравнительное изучение тюркских языков и литературы, взаимосвязь тюркской и мировой литературы, история евразийских государств и народов, исторические ценности, межкультурные связи, тюркский фольклор, музыка, изобразительное искусство и история искусства, региональные проблемы и пути их решения, политические отношения государств и народов, международная политика, религия, философия и право в тюркском мире, экономические проблемы в тюркском мире, сотрудничество и интеграция, социальные проблемы тюркских народов и пути их решения, география и географические исследования тюркского мира, опыт туризма и его развития в регионе, актуальность geopolитических и геоэкономических процессов.

Все члены научного сообщества, СМИ, все тюркские общины должны быть активно вовлечены в дальнейшее укрепление научного сотрудничества между однотипными народами, имеющими одни корни, чтобы объединить тюркские народы, укрепить отношения и улучшить качество исследования тюркского мира, создавать возможности для изучения, обмена мнениями, вносить максимальный вклад в формирование единства и интеграции тюркских народов.

Участники международного симпозиума «Казахстан и тюркский мир: актуальные проблемы в области социальных наук» предлагают следующие рекомендации:

1. Собрать вместе молодых ученых, проводящих исследования тюркского мира, обеспечить научный обмен мнениями по вопросам, общим для тюркского мира, и определить приоритеты для новых исследований;
2. Обеспечение обмена идеями и сотрудничества в этой области, определение направлений фундаментальных исследований, накопление опыта молодых ученых в области исследования тюркского мира;
3. Пропаганда общего литературного наследия тюркского мира, а также выявление общих черт и особенностей литературы современных тюркских народов, взаимное продвижение популярных литературных произведений и вклад в качественное расширение сотрудничества в этой области;
4. Анализ политических, экономических, социокультурных, образовательных и научных отношений между современными тюркскими государствами в формате двустороннего и многостороннего сотрудничества с международными отношениями, проблем в развитии этих отношений и их решения, а также показать международные инициативы и мероприятия Казахстана.
5. Развитие совместной научно-педагогической работы. Поддерживать развитие и внедрение передовых форм сотрудничества исследовательской работы с университетами, исследовательскими институтами и аналитическими центрами.

Принята 24 апреля 2021 года в Нур-Султане